

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JAHON DRAMATURGIYASI VA O'ZBEK MILLIY MA'RIFATPARVARLIK DRAMALARINI QIYOSIY O'QITISH METODIKASI

**Bunyodova Parizodabonu Bunyod qizi,**  
Urganch davlat pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi  
G-mail: bunyodovaparizoda@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqola umumta'lim maktablari adabiyot ta'limi tizimida jahon dramaturgiyasi va o'zbek milliy ma'rifatparvarlik dramalarini qiyosiy o'rganishning nazariy-metodik konsepsiyasiga bag'ishlanadi. Tadqiqotda qiyosiy o'qitish usuli shunchaki ma'lumotlarni qiyoslash emas, balki badiiy matn strukturasi, milliy-madaniy kontekst hamda dramaturgik konfliktlarning evolyutsiyasini tahlil qilishning tizimli mexanizmi sifatida asoslab beriladi. Maqolada ma'rifatparvarlik davri dramalaridagi ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jahon dramaturgiyasi klassik namunalari bilan parallel tarzda tahlil qilish; o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, milliy qadriyatlarni jahon madaniyati kontekstida anglash hamda badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish bo'yicha samarali metodik strategiyalar bayon etiladi. Shuningdek, maqolada dars samaradorligini oshiruvchi innovatsion texnologiyalar, qiyosiy tahlilning o'ziga xos mezonlari hamda o'quvchi tafakkurini rivojlantiruvchi muammoli topshiriqlar majmui amaliy tavsiyalar ko'rinishida taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** qiyosiy o'qitish, adabiyot darsi, lirik tahlil, badiiy tafakkur, metodik tizim, umumta'lim maktabi, ma'rifatparvarlik dramaturgiyasi, Mahmudxo'ja Behbudiy, jahon klassikasi, badiiy-estetik tafakkur, tanqidiy fikrlash, "Padarkush" dramasi.

**Аннотация.** Данная статья посвящена теоретико-методической концепции сравнительного изучения мировой драматургии и узбекской национальной просветительской драмы в системе школьного литературного образования. В исследовании метод сравнительного обучения интерпретируется не просто как сопоставление фактов, а как системный механизм анализа структуры художественного текста, национально-культурного контекста и эволюции драматических конфликтов. В статье обосновываются эффективные методические стратегии параллельного анализа социально-этических идей в просветительских драмах и классических образцах мировой драматургии, направленные на формирование у учащихся критического мышления, понимания национальных ценностей в контексте мировой культуры, а также художественно-эстетического мышления. Кроме того, в статье представлены практические рекомендации, включая инновационные технологии для повышения эффективности урока, критерии сравнительного анализа и комплекс проблемных заданий, способствующих расширению мировоззрения учащихся.

**Ключевые слова:** сравнительное обучение, урок литературы, драматический анализ, художественное мышление, методическая система, общеобразовательная школа, просветительская драматургия, Махмудхужа Бехбуди, мировая классика, художественно-эстетическое мышление, критическое мышление, драма «Падаркуш».

**Abstract.** This article is dedicated to the theoretical and methodological concept of teaching world drama and Uzbek national Enlightenment drama through a comparative approach in general education schools. The study defines comparative teaching not merely as comparing data, but as a systematic mechanism for analyzing the structure of literary texts, national-cultural contexts, and the evolution of dramatic conflicts. The article explores effective methodological strategies for parallel analysis of social-ethical ideas in Enlightenment dramas and world classics, aimed at fostering critical thinking, understanding national values within the global cultural context, and developing artistic-aesthetic consciousness in students. Furthermore, the article provides practical recommendations, including innovative technologies to enhance lesson efficiency, specific criteria for comparative analysis, and a system of problematic assignments to expand students' perspectives

**Keywords:** comparative teaching, literature lesson, dramatic analysis, artistic consciousness, methodological system, general education school, Enlightenment drama, Mahmudkhuja Behbudi, world classics, artistic-aesthetic consciousness, critical thinking, "Padarkush" drama.

**Kirish.** Bugungi kunda umumta'lim maktablarida adabiyot ta'limini jahon madaniy tajribasi bilan uyg'unlashtirish davr talabidir. Jahon dramaturgiyasi, xususan, Uilyam Shekspir fojialari inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib berishi bilan klassik maktab hisoblanadi. O'zbek milliy ma'rifatparvarlik dramalari esa millatni uyg'otish, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash va ta'lim-tarbiya masalalarini badiiy tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari hamda Abdulla Qodiriyning dramatik tajribalarini jahon klassikasi bilan qiyosiy o'rganish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi va adabiyotni global kontekstda tushunishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek adabiyotshunosligida qiyosiy adabiyotshunoslik masalalari bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borilgan N.Karimov o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti va uning ijtimoiy ildizlarini tahlil qilgan ekan, milliy dramaturgiyaning shakllanishida yangi g'oyalarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, I.Sulton dramaturgiya nazariyasini o'rganishda konfliktlar tabiatini, qahramon ruhiyati va badiiy vositalarning dramaturgik ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. B.Nazarov esa badiiy tasvir va obrazlar tizimini tadqiq etishda jahon adabiyoti tajribalaridan foydalanishning ahamiyatini ilmiy asoslab bergan. Adabiyot o'qitish metodikasida badiiy matn o'quvchining shaxsiy idroki, estetik tajribasi va tafakkur faoliyati bilan bog'lab o'rganish muhim sanaladi. Q. Yo'ldoshev adabiy ta'limda o'quvchi shaxsining badiiy-estetik rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va asar bilan ichki muloqotga kirishishini yetakchi masalalardan biri sifatida ko'rsatadi [1]. Demak, Shekspir va Behbudi she'riyatidagi falsafiy motivlarni qiyoslab o'qitishda tayyor xulosalarni berish emas, o'quvchini matn ichiga olib kirish, undagi ma'no qatlamlarini izlatish, dalil asosida fikr bildirishga o'rgatish muhimdir.

Shekspir fojialari (masalan, "Gamlet" yoki "Otello") inson ruhiyatining ziddiyatlari, hokimiyat uchun kurash va shaxsiy axloq tanazzulini universal, umuminsoniy miqyosda yoritadi. Shekspir dramalaridagi fojia ko'pincha qahramonning buyukligidan tug'lsa, Behbudiyning "Padarkush" asarida fojia "jaholatning tizimli qotilligi" sifatida gavdalanadi (1, 5). Behbudiya fojia bitta shaxsning o'limi bilan cheklanmaydi, balki o'sha o'lim orqali millatning ma'rifiy inqirozi fosh etiladi.

Agar Shekspir qahramonlari o'z ichki "men"i bilan bo'lgan monologik kurashlar orqali ochilsa, Behbudi va Qodiriy qahramonlari "ijtimoiy determinizm" (muhit ta'siri) doirasida namoyon bo'ladi. Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" asarida oilaviy-maishiy ziddiyatlar orqali ko'rsatilgan fojia – bu shunchaki shaxsiy drama emas, balki eskirgan an'analar qolipida qolib ketgan jamiyatning qotib qolgan mentalitetidir (2, 5).

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Shekspir asarlarida "taqdir" va "tashqi kuchlar" (koinot tartibi) inson xatti-harakatini boshqaruvchi dominant omil bo'lsa, o'zbek ma'rifatparvarlik dramalarida fojining asosiy generatori – "o'zlikni anglamaslik" va "ma'rifiy befarqlik"dir. Shekspirda qahramon o'z taqdiri bilan murosasiz kurashib, fojiali yengilsa, Behbudiy va Qodiriy qahramonlari taqdirga emas, balki zamon o'z garmayotganiga va o'zlarining ilmga bo'lgan ehtiyojlari yo'qligiga yengiladilar.

Bu farq dars jarayonida o'quvchilarga shuni anglatadiki: Shekspir fojiasi — bu ekzistensial (borliqqa oid) fojia bo'lsa, o'zbek ma'rifatparvarlik dramalari — bu ijtimoiy-pedagogik fojiadir. Shekspir qahramoni "yashash yoki o'lish" (to be or not to be) kabi ontologik savol oldida tursa, Behbudiy va Qodiriy qahramonlari "o'qish yoki jaholatda qolish" kabi pragmatik va milliy-ma'rifiy tanlov qarshisida turishadi. Bu qiyos o'quvchini nafaqat badiiy tahlilga, balki o'z davri va jamiyati oldidagi mas'uliyatni chuqur anglashga undaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda qiyosiy-adabiy tahlil, yaqin o'qish va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Uilyam Shekspir asarlari hamda Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Qodiriy dramalaridagi konflikt, motiv va badiiy ifoda vositalari solishtirildi.

Shuningdek, struktural-semantik va tarixiy-madaniy yondashuv asosida asarlarning g'oyaviy va estetik qatlamlari tahlil qilindi. Pedagogik jihatdan esa umumta'lim maktablarida qiyosiy o'qitishning samarali usullari o'rganildi.

**Tahlillar va natijalar.** Dramaturgik asarni o'qitishdan avval uning janriy tabiatini va konflikt mohiyatini aniqlab olish zarur. Dramatik asardagi motiv — bu personajlar harakatini boshqaruvchi ichki intilish, voqealar rivojini belgilovchi g'oyaviy markaz va muallifning estetik qarashlari majmuidir. Uilyam Shekspir fojialarida falsafiy motivlar insonning borliq oldidagi mas'uliyati, hokimiyat va axloq ziddiyati kabi ekzistensial darajada namoyon bo'lsa, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" yoki Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" asarlarida bu motivlar milliy uyg'onish, ilm-ma'rifat va ijtimoiy adolat qidiruvi bilan bog'lanadi. V.E. Xalizev adabiy asarda motivni syujet, obraz va g'oya bilan aloqador takrorlanuvchi semantik birlik sifatida izohlaydi [4]. Maktab darsida mazkur nazariy tushuncha o'quvchiga dramatik konflikt orqali tushuntirilishi lozim: "qahramonni harakatga keltiruvchi bosh maqsad", "asarning yuragi hisoblangan ziddiyat" kabi yondashuvlar o'quvchini tahlilga yaqinlashtiradi.

Shekspir dramaturgiyasida inson ruhiyati va hokimiyat munosabati alohida falsafiy yo'nalish hosil qiladi. "Gamlet", "Otello" va "QiroL Lir" kabi asarlarda ijodkor inson qalbining tubsizliklarini, tanlov erkinligini va taqdirning murosasizligini universal darajada talqin qiladi. Behbudiy va Qodiriy dramaturgiyasida esa dramatik qahramon shunchaki ruhiy izzat chekuvchi emas, balki jamiyatning ma'rifiy o'zgarishiga mas'ul bo'lgan ijtimoiy shaxs sifatida gavdalanadi. "Padarkush"dagi fojia — jaholatning fojiasi bo'lsa, Qodiriy asarlaridagi oilaviy-maishiy ziddiyatlar millatning ma'naviy qoloqligini

fosh etuvchi vositadir. Dars jarayonida o'quvchilarga "Shekspir fojiasi insonning shaxsiy tanloviga qay darajada bog'liq?", "Behbudiy qahramonining fojiasi shaxsiy aybmi yoki jamiyatning nuqsonimi?" kabi savollarni qo'yish metodik samaradorlikni oshiradi.

Dramatik asarlarda "erkinlik" va "mas'uliyat" motivlarini qiyosiy o'qitish eng muhim yo'nalishdir. Shekspir uchun erkinlik — shaxsning o'zligini namoyon etishi, ba'zan esa hokimiyat uchun o'z qalbini qurbon qilishdir. Behbudiy va Qodiriyda esa ozodlik milliy uyg'onish, ilmi bo'lish va qoloq urf-odatlardan xalos bo'lish bilan bog'lanadi. Qiyosiy o'qitishda bu tushunchalarni aynan bir xil ma'noda berish xato bo'ladi. Shekspir ijodida erkinlik uyg'onish davri insonparvarlik (gumanizm) g'oyalari bilan, o'zbek ma'rifatparvarlik dramalarida esa XX asr boshidagi milliy o'zlikni anglash va ma'naviy uyg'onish jarayoni bilan aloqadordir.

Qiyosiy o'qitish tizimi darsni shunchaki jadval to'ldirishga aylantirmasligi lozim. A. Zunnunov ta'kidlaganidek, adabiyot darsida asarning mazmuni, shakli va tarbiyaviy-estetik ta'sirini izchil o'rganish zarur [5]. Shekspir va Behbudiy asarlarini o'qitishda uch bosqichli tizim: dramatik konfliktni anglash, qiyosiy tahlil, falsafiy umumlashtirish maqsadga muvofiq.

Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchidan har bir falsafiy motiv va dramaturgik konfliktni matn dalillari asosida tahlil qilish talab etiladi. Bu o'quvchini umumiy mulohazalardan qochib, badiiy matnning ichki strukturasi, ya'ni dialoglar, monologlar va sahnaviy holatlarga diqqat qaratishga o'rgatadi. Masalan, Uilyam Shekspirning "Gamlet" fojiasida qahramonning ruhiy inqirozi va hayot mazmuni haqidagi shubhalari uning mashhur "To be or not to be" monologi orqali qanday ochib berilgan? Yoki Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi haqidagi fojiasida qahramonning bosh sababi — jaholat va ma'rifatsizlik qaysi dialoglarda, xususan, qotillik sodir etilgan sahnada o'zining keskin ifodasini topadi? Bunday savollar o'quvchini syujet yuzasidan o'tib, dramaturgik konfliktning tub mohiyatiga yetib borishga undaydi.

Shuningdek, Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" asarida eskirgan an'analar va milliy-maishiy ziddiyatlar qaysi personajlar harakatida, qaysi konfliktli vaziyatlarda (masalan, to'y va moddiy manfaat masalasida) yaqqol namoyon bo'ladi? Shekspirning "Otello" fojiasida esa rashk va ishonchsizlik motivlari qahramonlar o'rtasidagi dialogik kurashda qanday rivojlanadi? Har bir fikr asar ichidagi obraz, o'tkir dialog, ramziy ishora, kompozitsion burilish yoki sahnaviy harakat bilan asoslanishi shart.

Qiyosiy tahlil jarayonida o'quvchi Shekspir dramalaridagi "tashqi qarama-qarshilik" (qahramon va taqdir/jamiyat) bilan Behbudiy va Qodiriy asarlaridagi "ijtimoiy-ma'rifiy konflikt"ni (qahramon va jaholat/qoloq muhit) solishtirib, har ikki xil adabiy tizimning o'ziga xosligini dalillaydi. Bunday metodik yondashuv o'quvchini nafaqat matnni o'qishga, balki uni "teran tahlil qilish"ga yo'naltirib, dramaturgiyaning falsafiy qatlamlarini anglashiga ko'maklashadi.

Qiyosiy tahlil mezonlari oldindan aniq belgilansa, dars tartibli kechadi. Birinchi mezon — falsafiy motiv: erkinlik, vatan, shoir burchi, vaqt, inson, xotira. Ikkinchi mezon — lirik qahramon pozitsiyasi: da'vatkor, mushohadakor, iztirobli, faxrli, tanqidiy yoki umidli. Uchinchi mezon — poetik vosita: ramz, murojaat, antiteza, takror, ritorik savol, tarixiy ishora, obrazli umumlashtirish. To'rtinchi mezon — tarixiy-madaniy kontekst. Beshinchi mezon — o'quvchi uchun tarbiyaviy-estetik mazmun. M.M. Baxtinning badiiy so'z, dialogiklik va madaniy muloqot haqidagi qarashlari qiyosiy o'qitish uchun nazariy asos bo'la oladi, chunki ikki adabiy matni o'qitish jarayonida turli davr, turli madaniyat va turli poetik ong o'rtasida muloqot yuzaga keladi [6].

Metodik tizimda interfaol usullardan foydalanish dramaturgik konfliktni chuqur anglashga xizmat qiladi. "Konflikt xaritasi" usulida o'quvchilar doska markaziga "jaholat", "adolat", "hokimiyat" yoki "milliy taraqqiyot" tushunchalarini yozib, Shekspir fojialari va Behbudiy yoki Qodiriy dramalaridan shu mavzuga aloqador qarama-qarshi kuchlar va g'oyalarni tahlil qiladilar. "Ikki dunyo muloqoti" usulida bir guruh o'quvchilar Shekspir qahramonining dunyoqarashini (masalan, Gamletning ruhiy iztiroblari), ikkinchi guruh esa Behbudiyning "Padarkush" idagi o'g'ilning jaholatga mahkumligini himoya qilib, ularning tanlovlarini solishtiradilar. "Dalil va talqin" usulida esa o'quvchi dramatik asardagi ma'lum bir sahna yoki dialogdan dalil keltiradi, so'ng uning falsafiy mazmunini, ya'ni muallif qanday ijtimoiy-axloqiy muammoni fosh etayotganini izohlaydi.

Baholash mezonlari ham o'zgarishi zarur: faqat syujetni aytib berish yetarli emas. Qiyosiy o'qitishda baholash mezonlari: dramatik konfliktni to'g'ri tushunish, falsafiy-ijtimoiy motivni aniqlash, matndan dalil keltirish, jahon va milliy adabiyot talqinini solishtirish, dramatik konfliktni izohlash va mustaqil xulosa chiqarishga asoslanadi. Bunday baholash tizimi o'quvchini yodlashdan tahlilga, tahlildan dramaturgik talqinga, talqindan esa shaxsiy adabiy-estetik pozitsiyaga olib boradi.

#### **Darsda qo'llaniladigan metodlar:**

**Venn diagrammasi:** Shekspir va Behbudiy qahramonlarining xarakterlarini qiyoslashda qo'llaniladi.

**Klaster metodi:** "Padarkush" dramasiidagi jaholat sabablarini tizimlashtirish uchun foydalaniladi.

**"Munozarali savol" texnologiyasi:** "Nima uchun ma'rifatparvarlar aynan drama janrini tanlagan?" mavzusida bahs tashkil etiladi.

**Matn bilan ishlash (Qiyosiy tahlil):** Shekspir asarlaridagi monologlar bilan Behbudiyning ta'sirchan dialoglarini taqqoslash.

**Xulosa.** Umumta'lim maktablarida jahon dramaturgiyasi va o'zbek ma'rifatparvarlik dramalarini qiyoslab o'qitish o'quvchilarda badiiy matni chuqur anglash, adabiy-estetik tafakkur, mustaqil talqin, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qiyosiy idrok etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur yo'nalishda hokimiyat va axloq, jaholat va ma'rifat, shaxs erkinligi va ijtimoiy determinizm, vaqt hamda tarixiy mas'uliyat kabi motivlar

darsning asosiy tahliliy markaziga aylanishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jahon dramaturgiyasi tajribasi bilan o'zbek ma'rifatparvarlik dramalarining qiyosiy o'rganilishi o'quvchida nafaqat tahliliy qobiliyatni shakllantiradi, balki uni o'z milliy o'zligini jahon madaniy jarayonlari kontekstida anglashga, tanqidiy fikrlashga va global dunyoda o'z o'rnini topishga undaydi. Qiyosiy o'qitish – bu adabiyot darslarini qotib qolgan qoliplardan ozod etib, ularni hayotiy falsafa va madaniy dialog maydoniga aylantirishning eng samarali vositasidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2012.
2. Qosimov B. Ma'rifatparvarlik adabiyoti. – Toshkent: "Akademnashr", 2015.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2005.
4. Nazarov B. Badiiy tafakkur va davr. – Toshkent: "Fan", 2018.
5. Behbudiy M. "Padarkush" va boshqa asarlar. – Toshkent: "Yozuvchi", 1999.

